

сўзига нисбатан тор тушунчани ифодалайди. *Истилоҳ сўзи эса арабчадир. Уни халқ тушунмайди ва меъёрга айланган эмас. Терминология масалалари хамиша тилшуносликнинг долзарб масалаларидан бири бўлиб келган. Чунки терминларнинг соҳалар лугавий қатламларидаги ўрни ва вазифасини белгилаш, тушунчанинг мазмун-моҳиятини тўғри англаш имконини беради* [11,13]; “Ўзбек тилига Давлат тили мақоми берилгунга қадар ва у амал қила бошлагандан кейин қатор-қатор матбуот ходимлари, айрим тилшунослар Давлат тили ҳақидаги қонунни тўлиқ жорий этиш ўрнига, унинг айрим бандларига деярли эътибор бермай, қўлдан бўён қўлланиб келинаётган ва омма нутқида сингиб кетган қўллаб терминларни, уларнинг ички мазмунини ўрганмай туриб, янгидан нотўғри ҳосил қилинган лексемалар билан алмаштира бошлашди. Ҳатто, “термин”, “терминология” кабилар “атама”, “атамашунослик” лексемалари билан алмаштириб қўлланадиган бўлди. Бинобарин, “атама”, “атамашунослик” каби тушунчалар умумхарақтерда бўлганлиги эътиборга олинмади. Чунки, “атама” дейилганда, терминологияга мутлақо алоқаси бўлмаган ономастика (топонимия, антропонимия, ойконимия

кабилар)га алоқадор лексик бирликлар ҳам тушунилади” [10,13]. “Атама фан ва техника, маданият ва санъат соҳасидаги бир аниқ тушунчани ифодалайдиган сўзидир. Масалан, фон, фонема, фонология, парадигма каби атамалар тилшуносликка ҳосдир. Атамашунослик атамаларни ўрганадиган фан тармоғидир” [12:165]; “**Атама** эск. айн. **термин**” [14:61]; “**Атама 1 айн. термин. 2** Умуман, ном. *Лекин шаманни ҳар бир халқ ўз тилидаги ном, атама билан юритиб келган. Республикаимизнинг ўзидагина 400 дан ортиқ турлитуман қовун атамалари мавжуд экан*” [16:113].

Кейинги ўрта манбада берилишича, *атама* сўзи *термин* сўзи билан айнан бир эканлиги кўрсатилган. Бизнинг фикримизча, бундай қараш баҳслидир. *Термин* сўзи маълум бир соҳада қўлланса, *атама* сўзининг маъноси *термин* сўзининг маъносидан кенгрок бўлиб, у барча нарсалар ва ҳодисаларнинг номи сифатида тушунилади. *Термин* ва *атама* сўзлари бир-бирига яқин тушунча ифодалашига қарамай, улар айнан бир хил сўзлар эмас ва уларни алмаштириб қўллаб бўлмайди. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, биз *термин* сўзини қўллашни маъкул топдик.

Адабиётлар

1. Ахманова О. С. Экстралингвистические и внутрилингвистические факторы в функционировании и развитии языка. // Теоретические проблемы современного советского языкознания. - М.: 1966. -С. 27.
2. Ахмедов. О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанлари докт. дис... автореф. –Тошкент: 2016. 19-б.
3. Герд А. С. Значение термина и научное знание // Научно-техническая информация. Сер. 2. -М.: 1991. №10. -С. 1- 4.
4. Голованова Е.И. Лингвистическая интерпретация термина: когнитивно-коммуникативный подход. //Известия Уральского государственного университета. 2004. № 33. -С. 18-25.
5. Дадабоев Х. Ҳозирги ўзбек тили қурилишида ўзбек тилининг ўрни// Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий конференция материаллари. -Тошкент: 2015. 24-31-б.
6. Даниленко В. П. О месте научной терминологии в лексической системе языка. // Вопросы языкознания. 1986. №4.
7. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики. – М.: «Наука», 1961.
8. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. -Т.: 2009. 25-б.
9. Шмелева О.Ю. Современные подходы к определению термина как специальной единицы языка. // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С.Пушкина № 3, 2010.
10. Хусанов Н. “Иқтисодиётда техник ёзув” фанидан маъруза матни. -Т.: 2011. 17-б.
11. Холманова Т.Ш. Нефть ва газ соҳасига оид терминларнинг инглиз тилидан ўзбек тилига таржима қилиш муаммолари. Магистрлик дис. ... -Т.: 2013. 82-б.
12. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish (ikkinchi nashri). -Т.: “Yangi asr avlodi”, 2009. 264-b.
13. Oxford Advanced Learner's Dictionary, 7th edition. – Oxford University Press, 2006. –P. 1715.
14. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1-жилд // З.М.Маъруфов таҳрири остида. – М.: Рус тили, 1981. 631-б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2-жилд. // З.М.Маъруфов таҳрири остида. – М.: Рус тили, 1981. 715- б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
17. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 4-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
18. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: Советская энциклопедия, 1966. –С. 606.
19. Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: Советская энциклопедия, 1990. –С. 807.
20. Словарь иностранных слов, под ред. Петрова Ф.Н. 18-изд. – М.: Русский язык, 1989. 606-б.
21. Советский энциклопедический словарь, под ред. А.М.Прохорова. -М.: Советская энциклопедия, 1985. –С. 1599.

РЕЗЮМЕ

Мақолада термин, уни таърифлашнинг норматив, дескриптив каби турли ёндашувлари, терминнинг моҳияти ва хусусиятлари каби масалалар ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются различные подходы дефиниции терминов, такие как нормативный, дескриптивный. Автор статьи также раскрывает суть, особенности и свойства терминов.

SUMMARY

The given article deals with different approaches to defining terms, such as normative, descriptive and others. The main features and peculiarities of terms are also studied in the article.

MUSHTARAK IJTIMOIIY MUHIT VA KOMMUNIKATIV YAXLITLIKDA TILLAR O‘ZARO TA‘SIRI MASALALARI

E.Xo‘janiyazov – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Sh.Sh.Yuldasheva – *filologiya fanlari nomzodi*

G.A.Yusupova – *assistent o‘qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: o‘zaro ta‘sir, turkiy tillar, o‘zbek tili, qoraqalpoq tili, bir tizimdagi tillar, eski o‘zbek tili, eski qoraqalpoq tili, leksika.

Ключевые слова: взаимодействие, тюркские языки, узбекский язык, каракалпакский язык, родственные языки, староузбекский язык, старокаракалпакский язык, лексика.

Key words: interaction, Turkic languages, Uzbek language, Karakalpak language, relative languages, Old Uzbek, Old Karakalpak, vocabulary.

Ilmiy adabiyotlarda tillarning ta‘siri masalalari har xil tillar misolida, har xil aspektlarda o‘rganilgan. Ekstralingvistik faktorlarga bog‘liq holda, har xil ijtimoiy

tuzumlarda, har xil mafkuralar ta‘sirida ular turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Jamiyatda tillar maqomi teng bo‘lgan tuzumda ularning bir-birini boyitib borishi, ifoda

vositalarining rivojlanishida qulay va maqsadga muvofiq yo'lining tanlanishi, tillar uslubiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi. O'zbek va qoraqalpoq tillarining bir-biriga ta'siri progressiv hodisa sifatida tilshunoslikda o'rganilishi ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etishi zamon talab qilayotgan hodisalardan biridir. Shu sababli ham ularning bir-biriga progressiv ta'sir o'tkazishini o'rganish dolzarb masalalardandir. Ayniqsa, hozir O'zbekistonda umumta'lim maktablarida, kollejlarda, oliy o'quv yurti mashg'ulotlarida har ikkala til ham davlat tili sifatida o'qitilayotganda bu muammoning kun tartibiga qo'yilishi nazariy-metodik, ilmiy-amaliy jihatdan nihoyatda muhimdir. Bu muammo ilgari ba'zi ishlarda o'rganildi [5,6,10]. Hozirgi globallashuv davrida barcha ijtimoiy munosabatalar tezlashayotgan bir zamonda tillar o'rtasidagi integratsion jarayonlarning, ularning bir-biriga ta'sirining tez sur'atlar bilan o'sishini tabiiy bir hol, deb qarash zarur. Chunki umumiy ijtimoiy lisoniy makon, ko'p minglab insonlarning bir jamiyatda yashashi, milliy mentalitetlar yaqinligi, turmush tarzining o'xshashligi, bir xil geografik muhit, mushtarak kasb-kor, madaniyatning yaxlitligi, ma'naviy intilishlarning yagonaligi, tillarning bir-biriga ta'sir etishi uchun qulay sharoit, insonlarning o'zaro yaqinlashishi uchun iliq muvozanat paydo etadiki, bular tillarning bundan buyongi rivojlanishiga kuchli ta'sirini o'tkazadi. Bu jarayon turli sistemadagi tillar o'rtasida ham va bir xil sistemaga taalluqli tillar o'rtasida ham yuz berishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi ilgari ham va hozir ham tillar rivojlanishi va bir-biriga ijobiy ta'sir etishi uchun qulay bir muhitda joylashganligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpog'iston tillar vaziyatida qardosh tillarning bir-biriga ta'sir qilishining ijtimoiy asosi unda bir xil sharoitda yonma-yon yashayotgan, ijtimoiy shug'ullanadigan kasb-kori bir bo'lgan, mentaliteti, turmush tarzi, madaniyati, bir-biriga yaqin bo'lgan o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman millatlariga mansub aholining bir makonda, bir ijtimoiy muhitda umrguzaronlik qilib kelayotgani, ularning tillari bir-biriga kuchli ta'sir o'tkazishini ta'minlaydi.

2020 yildagi ma'lumotga ko'ra o'lkada 1 mln. 898.3 ming kishi istiqomat qilmoqda, shundan qoraqalpoq millatiga mansub aholi 36,9 foizni (690,4 ming kishi), o'zbeklar 40,1 foizni (751 ming kishi), qozoqlar 15,7 foizni (293,7 ming kishi), turkmanlar 5,3 foizni (99,9 ming kishi) tashkil etadi. Qolgan 2 foiz aholi rus, ukrain, belorus, ozarbayjon, qirg'iz, tojik, tatar, koreys va boshqa millatlarga mansub aholidir [12].

Statistik ma'lumotlardan ham ko'rinadiki, Qoraqalpog'iston aholisi tarkibida 4 ta millat vakillari ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu aholi asrlar osha mazkur hududda istiqomat qilishadi. Ushbu aholining tarixiy taqdir taqozosi bilan bir hududda yonma-yon yashashi, ularning bir havodan nafas olib, bir daryodan suv ichishi, ilgari ham, hozir ham bir ijtimoiy tuzumda umr kechirishi, o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarda bo'lishi ularning tillariga bevosita ta'sir etmasdan qolmaydi.

Hududda asrlar osha yonma-yon yashayotgan, xalqining salmog'i va har xil ijtimoiy aloqalarining kattaligi jihatidan o'zbek va qoraqalpoq tillarining o'zaro ta'siri asrlar osha davom etib kelayotganligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Bu ta'sir doirasini katta uchta davrga bo'lib o'rganish va izohlash mumkin:

1. Eng qadimgi davrlardan XX asrning birinchi choragigacha bo'lgan davr
2. XX asrning birinchi choragidan mustaqillikkacha bo'lgan davr.
3. Mustaqillik davri.

O'zbek tilining qoraqalpoq tiliga ta'siri qadimgi davrlardan boshlab o'zining muayyan bir xususiyatlariga ega. Ma'lumki, o'zbek adabiy tili turkiy tillar orasida qadimgi yozma adabiy til an'anasiga ega bo'lgan va eski o'zbek adabiy tili nomi bilan butun Markaziy Osiyo xalqlari tillariga katta ta'sir o'tkazgan adabiy til sifatida

mashhur bo'lgan. O'zbek tilining qoraqalpoq tiliga ta'siri shunday bir tarixiy sharoitda yuzaga chiqqan. Bu, eng avvalo, stixiyali tarzda har ikkala xalqning iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq, madaniy aloqalari natijasida amalga oshgan bo'lsa, ikkinchidan, u yozma adabiy til ta'sirining keng yoyilishi evaziga amalga oshgan.

Buni qoraqalpoq tili bo'yicha shug'ullangan olimlar ham qayd etganlar. Masalan, N.A.Baskakov va D.S.Nosirovlar eski qoraqalpoq tili o'z lisoniy me'yorlari bo'yicha eski o'zbek tiliga yaqin turadi desa, H.Hamidov yozma manbalar tili aralash ko'rinishga egaligini. Y.Berdimuratov esa qoraqalpoq tili eski o'zbek tili asosida paydo bo'lgan yozma manbalarga o'xshashligini ta'kidlaydi [11].

Bu holat "Qoblan" dostoni materiallari [4], Berdax [11], Ajiniyoz asarlari [11], "Qasamyodlar" [11] tili bilan ham tasdiqlanadi. Bundan tashqari N.A.Turebayeva tadqiqotida ham ta'kidlangan [10].

XX asrning 20-yillaridan keyingi davrlarda xalqni savodli qilishga bo'lgan intilish, yangi darsliklarning yaratilishi: maktab ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha maktab darsliklarining rus va o'zbek tillarida tayyorlanishi va shular asosida qoraqalpoq maktablari uchun tarjima darsliklar va mahalliy olimlar muallifligida har xil o'quv qo'llanmalarining tuzilishi, maktablarga joriy etilishi rus va o'zbek tillarining qoraqalpoq tiliga ta'sirini kuchaytirdi. Bu davrda qoraqalpoq tilining adabiy tili shakllandi, uning funksional uslublari rus va o'zbek tillari uslublari ta'sirida takomillasha boshladi. Dastlabki ilmiy, publitsistik, rasmiy ish qog'ozlari uslublari shakllandi. Ular xalq hayotining barcha sohalarida o'z ijtimoiy vazifalarini bajara boshladi va h.k. Bu davrda qoraqalpoq tiliga rus tilining ta'siri kuchli bolib, V.V.Vinogradov va Y.D.Desherievlar aytganidek, o'z yozuviga ega bo'lmagan adabiy tillarning o'z bazasi – xalq og'zaki so'zlashuv tilidan uzoqlashishiga sababchi bo'ldi [3:132; 4:239]. Mazkur davrda qoraqalpoq tiliga o'zbek tilining ta'siri ham bo'lganligini inkor qilish mumkin emas, ammo u qanday va qaysi sohalarida bo'lganligi, uning ko'lami, tarixiy roli, qoraqalpoq xalqi hayotidagi ahamiyati ilmiy jihatdan o'rganilmadi. Zotan, bu davrda qoraqalpoq tiliga boshqa tillarning ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki o'zbek tili vositachiligida amalga oshdi. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda har ikkala tilning ham davlat tili maqomiga ega bo'lishi, har ikkala xalq o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarning kuchayishi, tarjimachilik ishining barcha sohalarida faollashuvi, o'zbek va qoraqalpoq tillarining umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kollejlarda, oliy ta'lim sohalarida davlat tillari sifatida baravar o'qitilishi, o'zbek tilining har xil xalqlar vakillari orasida millatlararo til sifatida amal qilishi, bu tillarning ijtimoiy vazifalarining behad kengayishi natijasida ushbu tillarning leksik, grammatik, struktural va fonetik sohalarida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Bunday o'zgarishlar boshqa tillarda ham ko'zga tashlanmoqda. Masalan, 1985 – 1997-yillar, ya'ni 12 yillik davr davomida rus tilida sodir bo'lgan leksikografik o'zgarishlarning izohli lug'ati tuzilib, 5,5 ming atrofidagi so'zlarning yangidan kirib kelib, chinakam leksik portlashga sababchi bo'lganligi, tildagi "tug'ilish" va "o'zgarishlar" faktik misollar bilan izohlangan [9].

Bunday o'zgarish va evrilishlar o'zbek tilida ham yuz berayotgani N.Mahmudovning qator maqolalarida o'z aksini topmoqda. U o'zbek tilidagi o'zgarishlarni leksik aspektda tahlil etib ularni quyidagicha faollashgan jarayonlar sifatida ko'rsatadi: 1) so'z yasovchi affiksning ba'zilarining (-noma, -aro, no-, -lashtirish) axborotnoma, dalolatnoma, nomoddiy, nodavlat, kompyuterlashtirish, hukumatlararo va h.k.); 2) nafaol leksikaning faol qatlamga o'tishi (ajr, aziz-avliyo, vorisiylik, ma'naviyat, milliylik, qadriyat); 3) hukmron mafkura siyosati tufayli faol bo'lgan leksik qatlamning nafaol qatlamga o'tishi (ateist,

butunittifoq, ittifoqdosh, kommunizm, komsomol, kolhoz, sovxoz, pioner va b.); 4) ba'zi leksik birliklarga subyektiv-baho munosabatlarining salbiydan ijobiyga tomon o'zgarishi (mafura, biznes, biznesmen, millioner, savdogar, fermer, boy, mulkdor, unsur (element), bankir, birja, janob, kapital, senat, firma, parlament va b.); 5) so'z ma'nosining kengayishi (bandlik, baxt uyi, savdo uyi, diagnostika markazi, manzil, kompyuter (savodxonligi, axborotni saqlash, yuklash, sichqoncha), elektron (nashr, imzo, pochta, savdo, tijorat)); 6) xorijiy so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishi (antivirus, antiterror, bayt, bakalavr, bankomat, barter, brifing, broker, gimnaziya, diler, investor, kredit, lavash, lizing, marketing, menejer, monitoring, ambudsman, reyting, referendum, sertifikat, forum va b. Bu so'zlar ehtiyoj, zarurat sifatida tilga qabul qilinadi); 7) geografik nomlar, kishi nomlari milliy tariximizga oid nomlarning qadimiy variantlarining faol qo'llanila boshlanishi. Bular nihoyatda ko'p bo'lib, misollar qisqartirib olindi [7:3-16].

Mustaqillik yillarida tilimizda yuz berayotgan bu jarayonlar qoraqalpoq tilida ham sodir bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar, eng avvalo, ommaviy axborot vositalarida, kompyuter va elektron axborot tizimida, bozor iqtisodiyoti, xalqaro aloqalar, jamiyat tuzilishi ta'siri sabablari bilan kirib kelmoqdaki, bularning barchasiga o'zbek tili va boshqa tillar vositachilik rolini bajarmoqda, o'z navbatida, ular qoraqalpoq tilida o'z aksini topmay qolmaydi, albatta.

Adabiyotlar

1. Баскаков Н.А. Состав лексики каракалпакского языка и структура слова. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Лексика. – М.: 1962. IV. –С. 72; Насыров Д.С. Становление каракалпакского общенародного языка и его диалектная система. –Нукус-Казань: 1976.
2. Бекбергенов А., Пахратдинов К. Каракалпак тилине Каракалпакстандағы басқа түркі тілдерінің тәсірі. Түркі тілдердің өз ара байланысы мәселелери. Илимий мақалалар жыйнағы. I. –Нөкіс: 1998.
3. Виноградов В.В. Проблемы литературных языков и закономерностей их образования и развития. –Москва: “Наука”, 1967.
4. Дешериев Ю.Д. Развитие младописьменных языков народов СССР. – Москва: 1958.
5. Кошанов К. М. Русские заимствования в каракалпакском языке. –Нукус: “Каракалпакстан”, 1988.
6. Кошанов К.М., Пренова Г.Б., Заримбетов А.А., Абубакирова Р.Ж., Кудайназарова Г.Л. Иностранные слова в учебниках начальных классов. – Нукус: 2013.
7. Махмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожланишида фаоллашган жараёнлар. //Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент: 2015. № 5.
8. Насыров Д., Доспанов О., Бекбергенов А., Сайтов О. Каракалпак классиклери шығармаларының тили. –Нөкіс: 1995.
9. Толковый словарь русского языка конца XX века. Языковые изменения. Под ред. Г.Н.Скляровского. СПб. Фолио-Пресс, 1998.
10. Турабаева Н.А. Қарақалпоқ тили лексикасининг таракқиетида ўзбек тилининг таъсири. Филол.фан.номз. ... дисс. автореф. –Нукус: 2008.
11. Хамидов Х. Каракалпакский язык XIX начале XX вв. по данным письменных памятников. –Ташкент: “Фан”, 1986.
12. У.Бердимуратов. Әдебий тилдің функционаллық стиллерінің раўажланыўы менен карақалпақ лексикасының раўажланыўы. – Нөкіс: 1973.
12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

РЕЗЮМЕ

Bir til tizimiga mansub bo'lgan o'zbek va qoraqalpoq tillari qadimdan bir-biriga ta'sir qilib, o'zaro aloqada bo'lib kelmoqda. Bu aloqa mazkur tillarning barcha sathlarida ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, bu leksik sohada ancha sezilarli. Maqolada mazkur tillarning o'zaro ta'siri mustaqillik yillarida qanday darajada amalga oshayotgani masalalari qarab chiqiladi.

РЕЗЮМЕ

Ўзбекский и каракалпакский языки относящиеся к одной языковой системе издавна взаимодействуют, взаимодействуют друг с другом. Эти языковые связи видны на всех уровнях этих языков. Особенно это хорошо ощущается на лексическом уровне. В статье рассматриваются вопросы каким образом и на каком уровне эти языки взаимодействуют друг на друга за годы независимости.

SUMMARY

The Uzbek and Karakalpak languages, belonging to the same language system, influence and interact with each other. These connections can be seen on all levels of these languages, especially it is seen well on the lexical level. The author of the article studies the issues-how and on what level these languages influence on each other for the years of Independence.

ЭЖИНИЯЗ ШЫҒАРМАЛАРЫ ТИЛИНДЕГИ ҮРП-ӘДЕТ ХӘМ ДӘСТҮРЛЕРГЕ БАЙЛАНЫСЛЫ СӨЗЛЕР

Г.Қарлыбаева - филология илимлериниң докторы

Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети

Таянч сўзлар: этнографик сўзлар, фонетик, лексик хусусиятлар, урф-одат ва анъаналар.

Ключевые слова: этнографическая лексика, фонетический, лексические особенности, традиции и обычаи.

Key words: ethnographic vocabulary, phonetic, lexical features, traditions and customs.

Хәр бир миллет өзиниң миллийлигине, тилине, үрп-әдет дәстүрине ийе болып, өзгешеленип турады. Тил жәмийетлик кубылыс болғанлықтан ондағы хәр бир хәдийсе, өзгерислер тилимизде, оның лексикасына өз тәсири тийгизип отырады. Этнолингвистикалық изертлеуде халықтың тарихый басып өткен жолларының

излери, яғный, аўызеки әдебияты, дүнъятаньўы, үрп-әдетлери, оның басқа халықлар менен қарым-қатнасы хәм т.б. сәўленеди.

Қарақалпақ халқының өмир тарийхынан әсирлер даўамында қәлиплесип келген миллий үрп-әдет дәстүрлеринен, басқа халықлар менен қарым-